

## “Oliy matematika” kafedrasining xodimlarining “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan oilaviy turizm, ijtimoiy turizm va ayniqsa ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha berilgan topshiriqlaridan kelib chiqib, “Oliy matematika” kafedrasining professor-o‘qituvchilari va murabbiylik guruhi talabalari bilan hamkorlikda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” shiori ostida sayohatni tashkil qildilar. Prezidentning dam olish kunlarini uzaytirish bo‘yicha imzolagan farmoniga asosan kafedra professor-o‘qituvchilari uzaytirilgan dam olish kunlarida Samarqand, Jizzax va Qo‘qon shahriga tashrif buyurishdi. Ushbu sayohatning maqsadi yurtimizning boy madaniy merosi, tarixi va urf-odatlarini yaqindan o‘rganish hamda yoshlarda vatanparvarlik, birdamlik hisini mustahkamlashdan iboratdir.



**Kafedra mudiri B.A.Xudayarov**